



**O'ZBEKISTONDA YOSHLAR UCHUN YARATILAYOTGAN
IMKONIYATLAR**

Uraimova Xonzodabegim Mirzaaziz qizi¹

¹“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti 2-bosqich talabasi

Shavazov Qodirjon Ochilovich²

²“Qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti dekani
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7306566>

Sayyoramizning ertangi kuni, farovanligi farzandlarimiz qanday inson bo`lib kamolga yetishi bilan bog`liq. Bizning asosiy vazifamiz yoshlarning o`z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

Shavkat Mirziyoyev

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo`lidan ma`lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo`lishi o`sha davlatda yoshlar ta`lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e`tibor darajasiga bog`liq. Shu ma`noda, O`zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo`nalishlaridan biri hisoblanadi.

Oxirgi yillarda O`zbekiston Respublikasida katta o`zgarishlarni ko`rish mumkin. Milliy taraqqiyotning hozirgi bosqichi o`zining ochiqligi, so`z erkinligining keng rivojlanishi va jamiyatni erkinlashtirish bilan ajralib turadigan “Yangi O`zbekiston” deb nomlana boshladi. Sifat jihatdan yangi jamiyatimizda yosh avlodni kamol toptirish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Davlat rahbarining doimiy ravishda yoshlar bilan uchrashib turishi, ularning dolzarb muammolari bilan qiziqishi, uning shaxsiy tashabbusi bilan yoshlar parlamenti, Yoshlar ishlari bo`yicha agentlik tashkil etildi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko`lamli islohotlarni har tomonlama qo`llab-quvvatlash bilan birga, mamlakatimizda yoshlarimizga o`zlari istagan oliy ta`lim muassasasida taxsil olib, yetuk mutaxassis bo`lib yetishishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratilmoqda. Xar yili yangi xalqaro oliy ta`lim muassasalari O`zbekistonda o`z faoliyatlarini boshlab, yoshlarimiz ta`lim olishlari uchun keng imkoniyatlar berilmoqda.

Bu borada “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti ham talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Universitetimizga uzoq viloyatlardan kelib tahsil olayotgan talabalar uchun yotoqxonalarining mavjudligi, universitet xududida tibbiyot punkti, hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan, minglab kitoblar





jamlangan kutubxona, shuningdek bir nechta turdagi fan va sport to'garaklarning faoliyat yuritishi talabalarimiz darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun yaratilgan shart sharoitlardan bir misoldir. Ta'kidlab o'tish joizki, uzoq viloyatlardan kelib tahsil olayotgan talaba qizlarning barchasi universitet talabalar turar joyiga joylashtiriladilar. Shuningdek, universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarimizning barchasi ish bilan ta'minlanishi ham maqtovg'a sazovordir. Men shu universitetning "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti 2-bosqich talabasiman. Fakultetim haqida sizga ma'lumotlar bermoqchiman. Fakultetda 2020-2021 o'quv yilida 4 ta mutahassislik chiqaruvchi kafedralar faoliyat ko'rsatib, jami 46,25 shtat birligi, 7 ta fan doktori va professorlar, 25 ta fan nomzodi va dotsent hamda 17 ta katta o'qituvchi va asistentlar faoliyat olib boradi. Umumiy salohiyat fakultetda- 69,6% ni tashkil etadi. Keying 1 yilda pedagoglik faoliyati bilan birgalikda ITI ishlari bilan shug'ullanib dissertatsiyalarini muvaffaqiyatli himoya qilgan 5 nafar va keyin 2 nafar ilmiy darajaga ega xodimlarning ishga olinishi hisobiga ilmiy salohiyat asosiy shatatdagilar hisobiga 15% ga oshgan. 2025-yilga borib fakultet bo'yicha ilmiy salohiyat 90% ga olib chiqish ko'zda tutilgan. 2021-yil 15-aprel kuni "O'zKeysservis" O'zbek-Amerika qo'shma korxonasi va "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakulteti olimlari hamkorligida ishlab chiqilgan, talabalarga o'quv jarayonida real holatda ishlash jarayonini ko'rsatib bera oladigan gorizontol shpindelli zamonaviy "Keys" paxta terish mashinasining apparati olib kelindi va laboratoriya mashg'ulotlarini real holatda o'tkazish bo'yicha sharoit yaratildi, loyiha qiymati 50 000 AQSH dollarini tashkil etdi. 29-aprel kuni universitet va "Rostselmash" kompaniyasi o'rtasida tuzilgan hamkorlik memorandum doirasida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" fakultetining professor-o'qituvchilari O'zbekistonda ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan qishloq xo'jalik texnikalari taqdimotida "Rostselmash" kompaniyasining tijorat ishlari bo'yicha direktori Shveysov Aleksey Nikolaevich bilan uchrashuv tashkil etildi va talabalarning mazkur zavodda amaliyotlar o'tishi bo'yicha kelishib olindi.





Xalqaro hamkorlik va chet el bilan ilmiy aloqalar asosida erishilgan natijalar. Fakultet kafedralarida xalqaro hamkorlik keng ko`lamda rivojlantirib borilmoqda. Bugungi kunga kelib dunyoning bir qator rivojlangan davlatlarining ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlari bilan turli sohalarda aloqa tizimi tashkil etilgan. Jumladam:

Texas agrar-texnika universiteti (AQSH), Ondokuz Mayis universiteti va Ekologik qishloq xo`jaligini tashkil etish assotsiatsiyasi (Turkiya), Malayziya texnologik universiteti (Malayziya), Angel Kinchev nomidagi Rusen universiteti (Bolgariya), Rossiya davlat agrar universiteti – Timiryazev nomidagi Moskva qishloq xo`jaligi akademiyasi, N. V. Rudnisiy nomidagi Shimoliy-sharqiy agrar ilmiy markazi (Rossiya), M. Auzzov nomidagi Janubiy Qozog`iston universiteti olimlari bilan hamkorlikda 2021-yil 12-14-may kunlari “Agroinjeneriya va yashil infratuzilma yechimlari” xalqaro konferensiyasi;

Xalqaro va Rossiya ilmiy-muhandislik jamoat birlashmalari Ittifoqi, Krasnoyarsk o`lkasi fan va texnika uyi hamda Krasnoyarsk davlat agrar universiteti, Volgabo`yi go`sht-sut maxsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda 2021-yil 16-19-iyun kunlari “V International Scientific Conference on Agribusiness, Environmental Engineering and Biotechnologies” xalqaro ilmiy konferensiyalari tashkil etildi.





2021-yil 26-30-iyul kunlari Shimoliy Dakota shtati universiteti professori Thomas Bon ishtirokida professor-o`qituvchilari va magistrantlari uchun "Gidravlik energiyadan foydalanish asoslari, traktorlar va qishloq xo`jaligi mashinalari gidravlik tizimlari" nomli kurs bo`yicha 20 ta akademik soatli seminar trening o`tkazildi. AQSH va Markaziy Osiyo davlatlari universitetlari o`zaro hamkorligini qo`llab quvvatlovchi UNICEN dasturi loyihalari bo`yicha ham ishlar olib borildi:

- Oqlahoma shtati universiteti bilan "Central Asia University Partnerships Program with Uzbekistan" nomli loyihada hamkorlik ishlari olib borildi va hozirda qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalashtirish yo`nalishi talabalari uchun bugungi kundagi dolzarb mavzularda videodarslar yaratish bo`yicha hamkorlik ishlari olib borildi.
- Ayova shtati universiteti bilan "Advanced agricultural machinery partnership between Iowa State and TIAME" nomli loyihada hamkorlik ishlari olib borildi

Qarorda belgilangan vazifalar bo`yicha:

1. O`quv jarayonini takomillashtirish va sifatli tashkil etish bo`yicha:
 - Ta`lim yo`nalishlari bo`yicha kadrlar istemolchilari bo`lgan tashkilotlar bilan birgalikda "O`quv reja" larga yangi fanlarni kiritish;
 - o`qtiladigan fanlarning "Fan dasturlari"ga kadrlar istemolchilari bo`lgan tashkilotlar tomonidab bildirilgan takliflarni inobatga olib yangi mavzularni kiritish;
2. Ilmiy tadqiqot ishlari bo`yicha:
 - O`bekiston qishloq xo`jaligiga raqamli texnika texnologiyani ishlab chiqish va joriy etish asoslarini yaratish;
 - Yashil iqtisodiyotni qo`llab quvvatlash maqsadida muqobil mashinalarni atrof muhitga ta`sirini o`rganish;
3. Tashkiliy ishlar bo`yicha:
 - mutaxassis kafedralarning ilmiy-tadqiqot muassasalariga biriktirish





mutahassislik kafedralarning tarmoq korxonalari va tashkilotlariga biriktirilishi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Vatan sajdagohdir muqaddasdir.3-jild. – T.:O'zbekiston.1996
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.:Sharq,1998. – 32 bet
3. Karimov I.A. Yangicha fikrlash – davr talabi 5. – T.:O'zbekiston,1997. – 426 bet
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.:O'zbekiston,2016. – 59 bet

